

TILSHUNOSLIKDA KIRITMA KONSTRUKSIYASINING PAYDO BO'LISHI

Yuldasheva Fazilat

Urganch Ranch texnologiya universiteti
O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada tilshunoslikda kiritma konstruksiyasining paydo bo'lishi, o'rganilish tarixi va rivojlanishi tadqiq qilingan. Bundan tashqari kiritmalar qatnashgan gaplarning sintaktik tahlili, ularning gapda bajaradigan vazifasi misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: paranteza, kiritma konstruksiyalar, kiritmalarning xususiyatlari, kirish so'z, kiritma birikma, kiritma gap, tasviriy vosita.

Kirish. So'zlovchining bayon etayotgan fikriga munosabatini bildiradigan so'z yoki so'z birikmasi kirish so'z yoki kiritma birikma deyiladi. Ular xuddi undalmalar kabi gapning boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishi mumkin. Ushbu qoida tilshunoslikda kiritma konstruksiyalarga ham taaluqli hisoblanadi. Kiritmalar so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikriga munosabati (ishonchi, gumoni, tasdig'i, inkori va hokazo), fikrning birovga nisbatlanishi, o'z fikri tarkibiy qismlarining ahamiyatlilik darajasi, fikriga va uning tarkibiy qismlariga doir bayon etadigan qo'shimcha axboroti yoki izohi kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Adabiyotlar sharxi. Bu termin bo'yicha rus tilshunosligiga nazar soladigan bo'lsak, bu atamani rus tilshunoslari XIX asrning birinchi yarmida "kirish va kiritma konstruksiyalar" deya talqin qilishgan hamda ular bir- biridan ajratilib farqlanmagan. 1940- yillardan boshlab esa rus tilshunosligida kirish hodisasidan kiritmani farqlashga intilish kuzatiladi. Kiritma konstruksiyalarni maxsus kategoriya sifatida chegaralash lozimligi haqidagi qat'iy fikrni birinchi marta professor A.B.Shapiro ilgari surgan.

Kiritmalar kuni kecha tilimizda paydo bo'lgan tushuncha emas. Lekin kiritma konstruksiyalarni o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib o'rgangan I.Toshaliyev kiritma konstruksiyalarni yangi hodisa sifatida talqin qiladi. Bu fikrga unchalik qo'shilmagan M.D. Jamoliddinova o'zining "Badiiy nutqda parantez (kirish va kiritma) birliklarning grammatik va lingvopoetik xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida prof. S. Ashirboyev amalga oshirgan ilmiy tadqiqotiga suyanib, hamda o'zining bir qator izlanishlari natijasidan kelib chiqqan holda parantez hodisasi bu hozirgina tilimizda paydo bo'lib qolgan tushuncha emasligi, hattoki qadimgi turkiy tilda ham bu kabi konstruksiyalardan keng foydalanilganligi xususida ta'kidlaydi. Shuni yana qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, kirish va kiritmalarning farqli sintaktik kategoriyalar ekanligi turkiyshunoslikda ilk bor A.G'ulomov tomonidan asoslangan.

Muhokama va natijalar. Kiritma atamasi bu tilshunoslik olamida yangi atama emas balki, eskidan tilimizda mavjud bo'lgan hodisadir. Bu haqida qator rus, ingliz, nemis tilshunos olimlari tadqiqot ishlari olib borishgan. Bu hodisa kiritma, tinish belgilari yoki qavs belgisini ishlatish qoidalari doirasida o'rganilgan. Bitiruv malakaviy ishning ilk bobini tashkil etadigan ingliz tilshunosligida parantez tushunchasi qismida biz parantez tushunchasining etimologiyasi, uning mazmun mohiyati, ingliz tilshunosligida tutgan o'rni xususida so'z yuritimiz.

Paranteza, bu so'z aslida yunon tilidan "**Parenandthesis**" bo'lib uning ma'nosi "kiritma" dir. Ayni parenthesis so'zi fransuz tiliga "parenthese" shakliga o'zlashgan va "kirish so'z" hamda "qavs" ma'nolarini ifodalash uchun qo'llaniladi. Paranteza so'zi ingliz tilida "parenthesis" shaklida berilib buning ma'nosi "kiritma so'z", "()figurali qavs", "tire yoki vergul" kabi tinish belgilarini bildiradi, yoki bo'lmasam bu ingliz tilshunosligida bitta "((" yarim oy belgisi "**parenthesis**" bo'lib uning ko'plik shakli esa ikkita "(O)" yarim oy yani "**parentheses**" shaklida

beriladi. Bu belgilar yordami asosida biron bir ibora yoki gap to'ldiriladi degan fikrlar talqin etiladi.

Kiritmalarni grammatik jihatdan olib qaralganda esa bu kabi birlik vergulga ham mos kelib uning vazifasi qo'shma gap yoki katta hajmdagi matnlarda bir gapni boshqasidan ajratib uni izohlashga xizmat qiladi, badiiy adabiyot jihatidan olib qaralganda esa bu ingliz tilshunosligida **“to put beside”** tarzida ifodalangan. Buning ma'nosiga yuzlanadigan bo'lsak **“yoniga qo'yish, joylashtirish”** kabi ma'nolarni beradi. Bundan foydalanishda badiiy ijodkor ma'lum bir jarayonni ochib berishda uni o'quvchiga tushunarli qilib yetkazishda bu kabi parantez birikmalaridan keng jabhada foydalanishadi.

Shuni yana ta'kidlash kerakki, ingliz tili tilshunosligida parantez birliklar ifodalanishida yarim oy shaklidan tashqari (-, [], { },) kabi shakllardan yoki vergullardan ham foydalanishi ta'kidlanadi.

- Billy-bob, **a great singer**, was not a good dancer.
- Billy Bob, **mashhur xonanda**, mohir raqqos emas edi.
- A dog (**not a cat**) is an animal that barks.
- It (**mushuk emas**) qopadigan hayvon.
- Connor–**Amy's boyfriend**–bought the tickets.
- Konor – **Emining yigiti** – chiptalarni sotib oldi.
- My umbrella (**which is somewhat broken**) can still shield the two of us from the rain.
- Soyabonim (**ozgina ta'mir talab bo'lsa ham**) hali ham ikkovimizni yomg'irdan saqlanishda qalqon vazifasini bajara oladi.

Birinchi misolimizdagi **“a great singer,”** birikmasi gapda ikki tomonidan vergul bilan ajratilib paranteza bo'lib kelmoqda unga ko'ra **“a great singer,”** so'z birikmasini alohida olganimizda u gapning boshqa qismiga grammatik aloqaga kirishmagan bo'lsa ham umuman kontekstda kiritma element vazifasini bajarmoqda hamda **“Bob”** ning haqiqatdan ham yaxshi qo'shiqchi ekanligini to'liq tarzda izohlamoqda. Ikkinchi misolimizdagi **“(not a cat)”** so'zi ham kiritma element bo'lib gapda yarim oy shaklidagi qavs bilan gapning boshqa qismidan ajratilgan holda kiritma hodisasini vujudga keltirib mushukni qopmaydigan beozor jonivor ekanligi to'g'risida ma'lumot bermoqda. –**Amy's boyfriend**– kiritma elementi gapning boshqa qismidan tire ishorasi bilan ajratilib Konorni Emiga qanday aloqasi borligi xususida ma'lumot bermoqda. Va keyingi misolimizdagi **“(which is somewhat broken)”** kiritma gapi gapning boshqa qismlaridan bu ham qavs bilan ajratilgan holda soyabonning qanday holatda ekanligi xususida o'quvchiga ma'lumot bermoqda.

Xususan, bu kabi kiritmalarni hosil qiluvchi ishoralarning albatta o'ziga xos kelib chiqishi, maqsad va vazifalari mavjuddir, bu belgilarning kelib chiqishi ilk bor 1572-yilga borib taqaladi. Bunda rasmiy tarzda ingliz tili chop etilgan ma'lumot nashrlarida qo'llanilgan. To'lqinsimon belgi **“{ }”** hamda kvadratsimon **“[]”** belgilar qavsning bir turi bo'lib ularni fransuz, nemis hamda ingliz tillarida yarim oy shaklidagi qavslarning ichidagi gapga yana qo'shimcha tarzda izohlovchi so'z yoki gapni kiritishda keng qo'llashgan. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi **“The Chicago Manual of Style”** (Chikago uslubshunoslik darsligi) 13-nashridan olingan misolga nazar tashlaymiz.

“During a prolonged visit to Australia, Gleuk and an assistant (James Green, who was later to make his own study of a flightless bird [the kiwi] in New Zealand) spent several difficult months observing the survival behavior of cassowaries and emus.”

- Avstraliyaga uzoq safari davomida, Gleuk hamda uning yordamchisi (**Jeys Grin, u Yangi Zillandiyada ucha olmaydigan qush[the kiwi] ustida so'nggi tadqiqot ishlarini olib borayotgan kishi edi.**) bir necha mashaqqatli oylarni kazuarlar(tuyaqushning bir turi) hamda tuyaqushlarda mavjud bo'lgan hatti-harakatlarni kuzatish bilan o'tkazishdi.

Ushbu misoldan ham ko'rinib turibdiki, bunda kvadratsimon qavs ichidagi **[the kiwi]** so'zi ucha olmaydigan qushning qanday atalishini muallif ta'kidlab o'tishi bilan birgalikda, kiritma gapni

yanada tushunarli ifodalash maqsadida kiritmani ichida kiritma hosil qilishda ushbu ishoradan unumli foydalangan.

Xulosa. Shunday ekan kiritmalar badiiy matnning tasirchanligi, badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytiradigan birliklari qatoridagi eng muhim vositalardandir. Kiritmalarning barchasi “soʻzlovchining oʻz fikriga munosabatini bildirish” umumiy maʼnosi ostida birlashadi va gapdagi oʻrni qatʼiy emas. Shuning uchun ular gap boʻlaklaridan, gapdagi boshqa elementlardan pauza orqali ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. D.Jamoliddinova Badiiy nutqda kirish va kiritma birliklarning grammatik va lingvopoetik xususiyatlari – T.,2009.
2. Usmonov Oʻ. U.Ingliz tili nazariy grammatikasi – Samarqand, 2012. -60 b.
3. Usmonov Oʻ. U. Ingliz tili nazariy grammatikasining dolzarb muammolari – Samarqand, 2013. -65 b.
4. Щеболева И.И. Общая характеристика вставочных конструкций в современном русском литературном языке / Учен. зап. Ростов-на Дону гос. пед. института. Вып.4. 1955.- С.97.